



ISSN: 2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
e
LIBRARY.RU

VASIVATNOMALARING HUQUQIY MOHIYATI VA ULARNING XALQARO XUSUSIY HUQUQDAGI O'RNI

XURSANOV Rustam Xolmurotovich

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
direktorining birinchi o'rinnbosari,
y.f.d., professor v.b.
E-mail: hursanov.rustam75@gmail.com

For citation (иктибос келтиришучун, для цитирования): XURSANOV R.X. Vasiyatnomalarning huquqiy mohiyati va ularning xalqaro xususiy huquqdagi o'rni // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2025) B. 37–43.



3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada vasiyatnoma institutining huquqiy mohiyati, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi-dagi tartibga solinishi hamda xalqaro xususiy huquqdagi o'rni keng yoritilgan. Muallif meros huquqining jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlashdagi rolini, globallashuv davrida chet elda tuzilgan vasiyatnomalarning tan olinishi va ijro etilishidagi muammolarni chuqur tahlil qiladi. Xusan, 1961-yilgi Gaaga Konvensiyasining vasiyatnomalarning shakli haqiqiyligi bo'yicha ahamiyati ochib berilgan. Vasiyatnomaning yuridik shakli, mazmuniy talablari, favqulodda holatlardagi tuzilish tartibi hamda ekskutor institutining ahamiyati tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada xalqaro amaliyot, turli davlatlar tajribasi va O'zbekiston qonunchiligi o'ttasidagi uyg'unlik yoritiladi. Maqola vasiyatnoma institutining transchegaraviy huquqiy munosabatlardagi muhim o'rni va shaxsning irodaviy huquqlarini xalqaro miqyosda ta'minlashdagi roli haqida muhim xulosalarni beradi.

Kalit so'zlar: Vasiyatnoma, meros huquqi, Gaaga konvensiyasi, ekskutor, transchegaraviy meros.

ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ ЗАВЕЩАНИЙ И ИХ РОЛЬ В МЕЖДУНАРОДНОМ ЧАСТНОМ ПРАВЕ

ХУРСАНОВ Рустам Холмуратович

Первый заместитель директора

Института переподготовки и повышения квалификации юридических
кадров при Министерстве юстиции Республики Узбекистан,
доктор юридических наук, и.о. профессор
E-mail: hursanov.rustam75@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье всесторонне рассматриваются правовая сущность института завещания, его регулирование в Гражданском кодексе Республики Узбекистан и его место в международном частном праве. Автор глубоко анализирует роль наследственного права в обеспечении стабильности общества, а также проблемы признания и исполнения завещаний, составленных за рубежом, в условиях глобализации. В частности, раскрывается значение Гаагской конвенции 1961 года в части формальной действительности завещаний. Рассматриваются юридическая форма и содержательные требования к завещанию, порядок его составления в чрезвычайных ситуациях, а также значение института исполнителя завещания (экскьютора). Кроме того, в статье освещаются аспекты международной практики, опыт различных стран и соответствие законодательства Узбекистана этим стандартам. В работе подчеркивается важность

завещания в трансграничных правовых отношениях и обеспечение свободы волеизъявления личности на международном уровне.

Ключевые слова: завещание, наследственное право, Гаагская конвенция, экскьютор, трансграничное наследование.

THE LEGAL ESSENCE OF WILLS AND THEIR ROLE IN INTERNATIONAL PRIVATE LAW

RUSTAM Khursanov

First Deputy Director of the Training Institute for Lawyers

under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan,

Doctor of Law, Acting Professor

E-mail: hursanov.rustam75@gmail.com

ANNOTATION

This article comprehensively explores the legal nature of the institution of wills, its regulation under the Civil Code of the Republic of Uzbekistan, and its place in private international law. The author deeply analyzes the role of inheritance law in ensuring societal stability and the issues surrounding the recognition and enforcement of wills executed abroad in the context of globalization. In particular, the importance of the 1961 Hague Convention on the formal validity of wills is highlighted. The article examines the legal form and substantive requirements of wills, their creation under exceptional circumstances, and the role of the executor. Additionally, it discusses the alignment between international practice, the experiences of various countries, and Uzbekistan's legislation. The article draws important conclusions regarding the significance of wills in transboundary legal relations and the international protection of individuals' testamentary freedoms.

Keywords: Will, inheritance law, Hague Convention, executor, cross-border inheritance.

Meros huquqi jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida fuqarolarning xorijiy davlatlarda mulk orttirishi, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekistonda vasiyat qoldirishi holatlari ko'paymoqda. Bu holatlarda meros masalalarini tartibga soluvchi xalqaro xususiy huquq normalari, xususan, chet elda tuzilgan vasiyatnomalarni tan olish va ularni ijro etish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Chet el vasiyatnomalarini tan olish muammosi, bir tomonidan, davlatlar qonunchiliklarining turlicha bo'lishi, ikkinchi tomonidan, vasiyatnama tuzish va uni bekor qilish tartiblaridagi farqlar bilan murakkablashadi. Bu masala nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy nuqtai nazardan ham chuqur tahlilni talab qiladi.

Ma'lumki, meros huquqi – fuqarolik huquqining muhim institutlaridan biri bo'lib, shaxsning o'limidan keyin uning mol-mulki, majburiyatlari va huquqlarining kimga o'tishini tartibga soladi. Vasiyatnama esa meros qoldiruvchining (vasiyat qiluvchining) o'z mol-mulkini o'limidan keyin kimga va qanday tartibda o'tishini ifoda etuvchi bir tomonlama yuridik harakatidir.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida vasiyatnama haqida quyidagi huquqiy ta'rif beriladi: "Fuqarolar mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish huquqini o'z ixtiyoriga binoan o'z o'limidan keyin yuzaga keladigan huquqiy oqibatlar tarzida ifoda etishi mumkin. Bu – vasiyat shaklida amalga oshiriladi" (FK, 1112-modda).

Vasiyatnama – bu yuridik jihatdan bir tomonlama bitim bo'lib, u faqat meros qoldiruvchining irodasini aks ettiradi. O'zbekiston qonunchiligi bo'yicha, vasiyatnama vasiyat qiluvchining sog'lom aqli va irodasi asosida, hech qanday bosimsiz tuzilishi lozim. Bu jihat xalqaro xususiy huquqda ham asosiy prinsip sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 67-bobi, ya'ni 1120-1134-moddalari doirasida vasiyatnama institutining tartibga solinishi fuqarolik huquqining shaxsiy mulkiy erkinlik tamoyiliga asoslangan holda ishlab chiqilgan. Ushbu bobda shaxsning o'z mol-mulkiga oid irodasini vafotidan

keyin amalga oshirish huquqi huquqiy mustahkamlab berilgan. Fuqaroga o‘z mulkini erkin ravishda istalgan shaxsga, tashkilotga yoki davlatga vasiyat qilish huquqi berilganligi, bir tomondan, Konstitutsiyada belgilangan mulk huquqining kafolatlanishiga, ikkinchi tomondan esa shaxsning irodaviy erkinligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kodeksda vasiyatnomaning shakli ham aniq belgilab qo‘yilgan: u faqat yozma shaklda va notarial tartibda tasdiqlangan bo‘lishi shart. Bu talab, vasiyatnomaning haqiqiyligini kafolatlash, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni oldini olish va meros munosabatlarining barqarorligini ta’minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, hayotiy ehtiyojlardan kelib chiqib, favqulodda sharoitlarda vasiyatnoma tuzish imkoniyati ham tan olingan. Agar vasiyat qiluvchining hayoti xavf ostida bo‘lsa va notariusga murojaat qilish imkoniyati mayjud bo‘lmasa, u o‘z qo‘li bilan yozib, ikki nafar guvoh ishtirokida vasiyatnoma tuzishi mumkin. Bunday vasiyatnomalar keyinchalik belgilangan muddat ichida notarial tartibda tasdiqlanishi yoki sud tomonidan haqiqiy deb topilishi lozim.

Vasiyat qiluvchining vasiyatnomasini xohlagan vaqtida o‘zgartirish yoki bekor qilish huquqi mutlaq erkinlik tamoyiliga asoslangan bo‘lib, shaxs o‘z hayotiy va oilaviy sharoitlaridagi o‘zgarishlarga mos ravishda o‘z mol-mulkiga oid irodasini erkin tarzda o‘zgartirishi mumkin. Qonunda vasiyatnomaning so‘nggi nusxasi avvalgi nusxalarini avtomatik tarzda bekor qilishi belgilangani, fuqarolarning huquqiy aniqlik va ishonch tamoyillari asosida o‘z erkinligini amalga oshirishini ta’minlaydi.

Kodeksning maxsus moddalari muayyan sharoitlarda tuzilgan vasiyatnomalarga, xususan harbiy xizmatchilar, kasalxona bemorlari va uzoq safarda bo‘lgan shaxslar tomonidan tuzilgan vasiyatnomalarga nisbatan alohida tartiblarni belgilaydi. Bunday vasiyatnomalar, ularning tuzilgan sharoitlarini hisobga olgan holda, vakolatli shaxslar tomonidan tasdiqlanishi va o‘z kuchini saqlab qolishi mumkin. Bu yondashuv hayotiy ehtiyojlar va shaxsiy huquqlarni muvozanatlash tamoyiliga asoslangan bo‘lib, xalqaro huquq normalariga ham mos keladi.

Meros munosabatlarida majburiy ulush institutining mavjudligi shaxslarning ijtimoiy himoyasini ta’minlashga xizmat qiladi. 1129-moddaga ko‘ra vasiyat qiluvchining farzandlari, eri yoki xotini, ota-onasi minimal ulushdan mahrum qilinmasligi zarur. Bunday yondashuv oilaviy qadriyatlarni va fuqarolarning oila a’zolariga nisbatan majburiyatlarini himoya qilishni ko‘zda tutadi. Shu bilan birga, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ba’zi huquqiy tizimlar (masalan, Anglo-amerika huquq oilasi) shaxsning mulk ustidan to‘liq erkin tasarruf qilish huquqini ustuvor deb biladi va majburiy ulush prinsipini cheklaydi.

Vasiyat ijrochisi – ekskutor tayinlash huquqining tan olinishi esa vasiyatnomaning so‘zsiz va to‘g‘ri bajarilishini ta’minlashda muhim vosita sifatida ahamiyat kasb etadi. Ekskutorning vakolatlari va javobgarligi aniq belgilangan bo‘lib, u vasiyat qiluvchining irodasini amalga oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Umuman olganda, Fuqarolik kodeksining 67-bobi shaxs irodasining erkin amalga oshirilishini, meros huquqining aniq vaadolatli tartibga solinishini, mulk ustidan tasarruf qilish huquqining kafolatlanganligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, global huquqiy rivojlanish tendensiyalarini inobatga olgan holda, vasiyatnoma institutining shakliy talablari bo‘yicha moslashuvchanlikni oshirish, tanlov huquqini mustahkamlash va transchegaraviy huquqiy normalarga yanada kengroq moslashish zaruriyati ham mavjuddir. Bu esa O‘zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy maydonda integratsiyalashuv darajasini oshiradi va fuqarolar uchun yanada qulay, adolatli va samarali huquqiy sharoitlarni yaratadi.

Huquqshunos olimlar vasiyatnoma institutini shaxsning mulkiy huquqlarini vafotidan keyin amalga oshirish vositasi sifatida baholaydi. Masalan, Rossiyalik yirik fuqaro huquqshunosi

E.A. Suxanov vasiyatnomani “shaxsning o’limidan keyingi irodasi orqali ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish quroli” deb ataydi. [1, B.890] Huquqshunos olimlar B.S. Antimonov va K.A. Gravning fikriga ko’ra meros huquqiy munosabatlari ikki bosqichda shakllanadi: birinchi bosqich – merosning ochilishi hodisasi, ikkinchi bosqich esa merosxo’rlarning ixtiyoriy qarori asosida merosni qabul qilish bilan yuzaga keladi [2, B.4650] Shu bilan birga, I.L. Korneeva meros huquqiy munosabatlarini merosning ochilishi va uni qabul qilish, hamda bu jarayon bilan bog’liq boshqa harakatlarni tartibga soluvchi fuqarolik-mulk huquqiy normalarining bir qismi sifatida baholaydi [3, B.17].

Meros huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishini asosan meros qoldiruvchining vafoti bilan bog'lovchi yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, bu yondashuvlarning to'laligini shubha ostiga oluvchi nuqtalar ham mavjud. Chunki meros huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi faqat meros qoldiruvchining o'limi bilan emas, balki undan oldin tuzilgan huquqiy bitimlar, xususan vasiyatnoma orqali ham shakllanishi mumkin. Ko'pgina davlatlar qonunchiligi vasiyatnomaning yozma shaklda tuzilishi va guvohlar ishtirokida tasdiqlanishini talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq, vasiyatnomalar odatda notarial tasdiqlanadi, ayrim holatlarda esa notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan shakllar ham qabul qilinadi. Masalan, yopiq vasiyatnomalar notarius ishtirokida rasmiylashtiriladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, vasiyatnoma tuzish jarayoni ham yuridik fakt sifatida baholanadi va bu fakt meros ochilgandan keyingi huquqiy natijalarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, meros huquqiy munosabatlari mutlaq xarakter kasb etishi mumkin. Agar meros qoldiruvchi hayoti davomida vasiyatnomalar tuzmagan bo'lsa, u holda meros mulki qonun asosida belgilangan merosxo'r larga o'tadi. Har bir davlat qonunchiligi bu masalani o'ziga xos tarzda tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan ham, agar shaxs vafotidan oldin vasiyat qilmagan bo'lsa, uning mol-mulki qonunda belgilangan merosxo'rlik tartibiga muvofiq o'tadi.

Xalqaro amaliyotda vasiyatnoma institutiga oid muhim hujjatlardan biri bu 1961-yilgi Gaaga konvensiyasi bo‘lib, unda vasiyatnoma tuzishdagi shakl erkinligi prinsipi belgilangan [4] Konvensiyaga ko‘ra, vasiyatnoma quyidagi mamlakatlardan birining qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilgan bo‘lsa, u tan olinadi:

- Vasiyat qiluvchining yashash joyi;
 - Fuqaroligi bo'lgan davlat;
 - Vasiyatnoma tuzilgan joy;
 - Vasiyat qiluvchining mol-mulki joylashgan hudud.

Bu yondashuv xalqaro huquqiy amaliyotda muhim yengillik yaratadi. Ilgari har bir davlat o‘z hududida amal qiluvchi shakliy qoidalar asosida vasiyatnomalarni baholaganligi sababli, chet elda rasmiylashtirilgan vasiyatnomalar ko‘plab hollarda shakl farqlari tufayli boshqa davlatlar tomonidan tan olinmagan. Konvensiya esa, har bir davlatga o‘z hududida ham boshqa davlatda rasmiylashtirilgan vasiyatnomani tan olish majburiyatini yuklaydi, shuning uchun shakl nuqtai nazaridan ortiqcha to‘siglarni bartaraf etadi.

Shakl erkinligi tamoyili shaxsning erkin irodasiga hurmat ko'rsatish va xalqaro miqyosda huquqiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Agar vasiyat qiluvchi o'zining yashash joyi qonuniga ko'ra vasiyatnomा tuzgan bo'lsa, bu vasiyatnomা boshqa davlatda ham, u yerning shakliy qoidalaridan qat'i nazar, haqiqiy deb tan olinadi. Shu tariqa, vasiyat qiluvchining huquqiy ishonchi mustahkamlanadi va fuqarolarning huquqiy manfaatlari himoya ostiga olinadi.

Konvensiya amaliyotda davlatlar o'rtasida huquqiy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xususan, Konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlar chet elda tuzilgan vasiyatnomalarni

shakliy jihatdan ko'rib chiqishda milliy qoidalar bilan cheklanib qolmaydi, balki Konvensiyada ko'rsatilgan variantlardan biri bo'yicha vasiyatnomaning shakliy haqiqiyligini e'tirof etadi. Bu esa, xalqaro meros ishlarini ko'rib chiqishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, protsessual xarajatlarni va vaqtini kamaytiradi.

Konvensiyaning o'zi ham zamonaviy huquqiy tamoyillarga asoslangan. Shaxs irodasining ustuvorligi, mulkiy huquqlarning xalqaro himoyasi va huquqiy barqarorlik – bu Konvensiyaning asosiy ideallaridir. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, bu tamoyillar asosida ishlovchi davlatlarda vasiyatnoma bilan bog'liq nizolar soni kamaygan, meros ishi yuritish soddalashtirilgan va fuqarolarning o'z huquqlaridan foydalanish imkoniyatlari kengaygan.

1961-yilgi Gaaga Konvensiyasi nafaqat shakliy jihatdan vasiyatnomalarni himoya qiladi, balki davlatlar o'rtasida ishonchni mustahkamlab, huquqiy hamkorlikning sifat darajasini oshiradi. O'zbekiston Respublikasi ham xalqaro huquqiy aloqalarni rivojlantirish va fuqarolar huquqlarini ta'minlash yo'lida ushbu Konvensiya tamoyillarini o'z milliy qonunchiligi va amaliyotiga kengroq joriy etish istiqbollari haqida o'yashi maqsadga muvofiqdir.

Vasiyatnoma, dastlab ichki (milliy) huquq doirasida shakllangan institut bo'lsa-da, globallashuv sharoitida xalqaro-huquqiy munosabatlarning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, fuqarolarning xorijda mol-mulk orttirishi, xorijiy davlatlar fuqarolari yoki fuqaroligi bo'limgan shaxslarning o'z vafotidan keyin meros qoldirishi bilan bog'liq holatlar xalqaro xususiy huquq doirasida vasiyatnoma institutining ahamiyatini oshirmoqda.

Xalqaro huquqda vasiyatnoma institutining o'rni ham juda ahamiyatli.

Xalqaro huquqda vasiyatnoma masalalari asosan xalqaro xususiy huquq normalari orqali tartibga solinadi. Bu yerda ikki asosiy muammo yuzaga keladi:

- Vasiyatnomaning shakliy (formal) haqiqiyligi (yaroqliligi) masalasi;
- Vasiyatnomaning moddiy (substantiv) haqiqiyligi masalasi.

Shakliy haqiqiylik deganda, vasiyatnomaning qanday shaklda va qanday tartibda tuzilganligi, ya'ni hujjatning tashqi ko'rinishi va rasmiylashtirilish qoidalariga rioya qilinishi nazarda tutiladi. Moddiy haqiqiylik esa vasiyat qiluvchining huquqiy layoqati, uning irodasining erkinligi, mazmuni va taqsimot qoidalari bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasining "Xususiy xalqaro huquq asoslari to'g'risida"gi Qonunining 30-moddasida ham bu masalaga to'xtalib o'tilgan: vasiyatnoma shaklining haqiqiyligi vasiyat tuzilgan vaqtida quyidagi huquqlarga binoan baholanadi: vasiyat qiluvchining vatani qonuni, doimiy yashash joyi qonuni, yoki vasiyatnoma tuzilgan davlat qonuniga ko'ra.

Xalqaro huquqshunos olim A.V. Kuznetsova o'zining tadqiqotida vasiyatnomaning xalqaro xususiy huquqdagi o'rnini tahlil qilar ekan, shunday ta'kidlaydi:

"Vasiyatnoma instituti – shaxsiy huquqlarning transchegaraviy huquqlari va majburiyatlarini amalga oshirish doirasida vasiyatnoma, davlatlar huquqiy tizimlari o'rtasidagi muvofiqlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi" [5].

Yana bir taniqli olim M.V. Baglay esa shunday yozadi:

"Fuqarolarning transchegaraviy huquqlari va majburiyatlarini amalga oshirish doirasida vasiyatnoma, davlatlar huquqiy tizimlari o'rtasidagi muvofiqlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi" [6].

Bu fikrlar shuni ko'rsatadiki, vasiyatnoma nafaqat milliy huquq doirasida, balki xalqaro huquq maydonida ham shaxs huquqlarini himoya qilish vositasi sifatida e'tirof etiladi.

Ko'plab davlatlar, xususan Germaniya, Fransiya, AQSh va Birlashgan Qirollik amaliyotida vasiyatnoma masalalari xalqaro normalar bilan uyg'unlashtirilgan. Masalan:

- Germaniyada (BGB, §2247) vasiyatnama erkin shaklda tuzilishi mumkin, biroq xalqaro huquq normalariga muvofiqligi ta'minlanadi [7].
- Fransiyada esa (Code civil, Art. 970–980) vasiyatnama rasmiy shaklda notarial tartibda yoki shaxsiy tarzda yoziladi va xalqaro tan olish tamoyiliga tayanadi [8].
- AQShda harbirshat o'z tartibiga egab o'lsa-da, chet elda rasmiy lashtirilgan vasiyatnomalarning tan olinishini soddalashtirish uchun Uniform Probate Code qabul qilingan [9].

Vasiyatnama xalqaro xususiy huquqda shaxsning transmilliy huquq va erkinliklarini ta'minlovchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Uning xalqaro-huquqiy tabiatda ko'rinishi, davlatlar o'rtasida o'zaro hurmat va tan olish tamoyillariga asoslanadi. Shu sababli, chet elda rasmiy lashtirilgan vasiyatnomalarni tan olish va ijro etish masalalari xalqaro normativ hujjatlar va milliy qonunchiliklar uyg'unligi asosida hal etiladi.

Xalqaro xususiy huquqda meros masalalari alohida ahamiyat kasb etadi, chunki fuqarolarning mol-mulki ko'pincha bir nechta davlatlarda joylashgan bo'ladi. Shu sababli, transchegaraviy meros huquqi munosabatlarini tartibga solish muammosi dolzarbdir. Bunday holatlarda qaysi davlat qonunchiligi qo'llanishi, chet elda tuzilgan vasiyatnomalar qanday tan olinishi va ijro etilishi kabi savollar yuzaga keladi.

Meros huquqining xalqaro xususiy huquqdagi o'rni

Xalqaro xususiy huquqda meros institutining asosiy vazifasi – turli yurisdiktsiyalarga tegishli shaxslarning o'limidan keyin mulkiy huquqlarining aniqligini vaadolatli taqsimlanishini ta'minlashdir. Meros huquqining xalqaro aspektlari quyidagi asosiy tamoyillar asosida rivojlangan:

- Lex rei sitae tamoyili – mulk qaysi davlat hududida joylashgan bo'lsa, o'sha davlat qonunlari qo'llaniladi.
- Fuqarolik tamoyili – meros qoldiruvchining fuqaroligi asosida huquqiy tartib belgilanishi.
- Doimiy yashash joyi tamoyili – meros qoldiruvchining o'lim paytidagi yashash joyi huquqi asosida meros masalalarining tartibga solinishi.

Vasiyatnomaning xalqaro meros munosabatlaridagi roli

Vasiyatnama transchegaraviy meros huquqida o'ziga xos tartibga soluvchi vosita hisoblanadi. Uning asosiy funksiyasi shundaki, meros qoldiruvchi shaxs o'z mulkiga oid taqsimotni mustaqil belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Aynan xalqaro xususiy huquqda vasiyatnomalar orqali:

- Merosning qaysi davlat qonunchiligi asosida amalga oshirilishi;
- Qaysi shaxslarga mulk o'tishini aniqlash;
- Xorijiy davlatlarda mol-mulk taqsimoti va huquqlarni kafolatlash imkoni yaratiladi.

G.K. Matveeva o'zining xalqaro xususiy huquqqa bag'ishlangan asarida shunday yozadi:

"Meros huquqida xalqaro tartibga solishning asosiy maqsadi – meros qoldiruvchining irodasini hurmat qilish va davlatlararo munosabatlarda huquqiy aniqlikni ta'minlashdir" [10].

Boshqa taniqli olim P. Nyuburger esa vasiyatnama institutining xalqaro xususiy huquqda ahamiyati haqida quyidagicha ta'kidlaydi:

"Vasiyatnomalar fuqarolarning xalqaro maydonda huquqiy iroda bildirish erkinligini ta'minlovchi vositadir. Ularning tan olinishi – shaxs erkinligini xalqaro darajada kafolatlashning zaruriy shartidir" [11].

Xalqaro hujjatlar va konvensiyalar roli

Chet elda tuzilgan vasiyatnomalarni tan olish va ijro etish borasida xalqaro hujjatlar muhim o'rinn tutadi. Xususan:

- 1961-yilgi Gaaga konvensiyasi – vasiyatnomalarning shakliy haqiqiyligini soddalashtirishni ko'zda tutadi.

- 1989-yilgi Yevropa Konvensiyasi – meros huquqiga oid notarial hujjatlarning tan olinishi va ijrosi tartiblarini belgilaydi.

Bu hujjatlar davlatlar o‘rtasida vasiyatnomalarning o‘zaro tan olinishi va ijro qilinishini yengillashtiradi, hamda huquqiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Xulosa o‘rnida

Demak, xalqaro xususiy huquqda meros munosabatlari va vasiyatnoma instituti shaxsning o‘z mulkini o‘z istagiga binoan taqsimlash huquqini, shuningdek, bu huquqning transmilliy sharoitda hurmat qilinishini ta’minalashga xizmat qiladi. Vasiyatnomaning xalqaro meros munosabatlaridagi roli – davlatlarning huquqiy tizimlari o‘rtasida muvofiqlik va shaxsiy huquqlarning kafolatlanganligini ta’minlashda beqiyosdir.

Иқтибослар/Сноски/References

1. Matveeva G.K. “Mezhdunarodnoe chastnoe pravo: kurs lektsiy” – Moskva, 2015.
2. Newburger P. “Private International Law and Testamentary Dispositions” – Oxford University Press, 2012.
3. Суханов Е.А., Гражданское право. В 2 т. Том 1, под ред. Е.А. Суханова. – М.: Волтерс Клювер, 2008. – С. 890
4. Антимонов Б. С., Граве К. А. Советское наследственное право. М., 1995. С. 4650
5. Корнеева И. Л. Наследственное право Российской Федерации: учеб. для магистров / И.Л. Корнеева. – 3-е изд., перераб и доп. – М.: Юрайт, 2012. – С. 17.
6. The Hague Conference on Private International Law, Convention of 5 October 1961 Abolishing the Requirement of Legalisation for Foreign Public Documents (Apostille Convention), <https://www.hcch.net/en/instruments/conventions/full-text/?cid=41>
7. Кузнецова А.В. Международное частное право: актуальные вопросы теории и практики. — М.: 2019.
8. Баглай М.В. Сравнительное конституционное право. — Москва: [Издательство], 2017.
9. German Civil Code (BGB). § 2247.
10. Code Civil. Arts. 970-980.
11. Uniform Probate Code. (2025). Uniform Law Commission.

YURIST AXBOROTNOMASI
3-SON 5-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА
НОМЕР 3, ВЫПУСК 5

LAWYER HERALD
VOLUME 5, ISSUE 3

ISSN 2181-9416
DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416